O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil ____-dekabrdagi ____-son
buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI ONA TILI VA ADABIYOT FANI O‘QITUVCHILARI UCHUN “KASBIY KO‘NIKMALARINI YUKSALTIRISH” MALAKA OSHIRISH KURSINING

O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uchun “Kasbiy ko‘nikmalarini yuksaltirish” malaka oshirish kursi

Tuzuvchilar: M.T.Ergasheva, D.M.Xakimova, D.B.Urinbayeva,
D.N.Taylakova, S.S.Jumanazarov, L.Mirzoxidova,
G.T.Raximova, Sh.Nazarova, M.Sabirova, J.Eshquvatov

Taqrizchilar:

–
–

Mazkur o‘quv dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2024-yil “___” dekabrdagi “___” -son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI ONA TILI VA ADABIYOT FANI O‘QITUVCHILARI UCHUN “KASBIY KO‘NIKMALARINI YUKSALTIRISH” MALAKA OSHIRISH KURSINING O‘QUV DASTURI MODULLARINING MAZMUNI

KIRISH

Ushbu o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79-son Farmoni va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati amalga oshirish, umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda maktab ta’limi sifatini yaxshilashda fan o‘qituvchilarining pedagogik etika va muloqot madaniyati, ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari, ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or, innovatsion texnologiyalarini samarali joriy etishga ilmiy yondashuvi, sinfni boshqarish, ota-onalar va o‘quvchilar bilan muloqot va hamkorlik qilish, inklyuziv ta’limni tashkil etish, o‘quvchilar faoliyatini baholash usullari, Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

O‘quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanishini, o‘z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari asosida ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari fan o‘qituvchilarini malaka oshirish kurslarida o‘qitish va ularga malaka sertifikatini berish kursining o‘quv dasturi, ular egallashi zarur bo‘lgan kompetensiyalar va umumiy o‘rta ta’lim maktab

o‘qituvchilari kasb standarti bo‘yicha quyidagi blok va modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

I. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

1.1. Ta’limdagi islohatlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1.2. Zamonaviy psixologik yondashuvlar

1.3. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

1.4. Inklyuziv ta’lim masalalari

II. Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

2.1. Kasbiy rivojlanish va o‘zaro hamkorlik

2.2. Zamonaviy ta’lim paradigmalari

2.3. O‘quv jarayonini samarali tashkil etish

2.4. Ta’lim sifatini baholash mexanizmini xalqaro baholash dasturlari talablari asosida takomillashtirish

2.5. Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt.

III. Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar

3.1**.** Milliy o‘quv dasturi va amaldagi darsliklarning qiyosiy tahlili asosida dars jarayonini samarali tashkil etish usullari

3.2. Xalqaro baholash dasturlari va zamonaviy yondashuvlar (7 E modeli)

3.3. O‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmalari va yozma (esse, insho, topshiriqli diktant) savodxonligini rivojlantirish

3.4. Adabiyot nazariyasiga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish

3.5. O‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish

3.6. Tanlov fani.

IV. Loyiha ishi (Dars loyihasi va mikrodars taqdimoti)

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi – o‘quv fani bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir mahorati va kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish;

ularning kasbiy rivojlanish tizimi uzluksizligini ta’minlash va o‘qitishning innovatsion g‘oyalari bilan tanishtirish;

zamonaviy yondashuvlar asosida ularning kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajriba asosida yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish;

jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslarini o‘rgatish;

kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun’iy intelerktni qo‘llash malakalarini rivojlantirish;

ta’lim muassasalari pedagog xodimlarini malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar hamda innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisining kasb standarti asosida, tegishli yo‘nalish bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog va mutaxassislari xodimlari malaka oshirish o‘quv kursining hajmi **4 ta blok, 15 ta modul** va yakuniy sinovdan iborat bo‘lib, jami **100 soatni** tashkil etadi.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARI UCHUN MALAKA OSHIRISH KURSI O‘QUV DASTURI MODULLARINING MAZMUNI

I. IJTIMOIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

1.1. “TA’LIMDAGI ISLOHOTLAR VA SOHAGA DOIR ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy
1.	Ta’limdagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda qo‘llash.	2	2	
2.	Bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosati	2		2
3.	Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari.	2		2
	Jami	**6**	**2**	**4**

1.1. “TA’LIMDAGI ISLOHOTLAR VA SOHAGA DOIR ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Ta’limdagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda qo‘llash (2 soat ma’ruza mashg‘uloti)

Pedagog kadrlarning ta’lim sohasidagi huquqiy asoslari, davlat ta’lim standarti va talablari bo‘yicha zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar. Mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligi: yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining mazmun va mohiyati, ish hujjatlari, mehnat shartnomasi va sohaga oid hujjatlar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun, O‘qituvchi kasb standarti va “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi.

2-mavzu. Bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosati (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Bola huquqlarining qonuniy kafolatlari, bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari. Bola huquqlari kafolatlarining milliy va xalqaro huquqiy asoslari.

3-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy immunitetini shakllantirish va yuksaltirish yo‘llari. Korrupsiyaviy harakatlarga qarshi tayinlanadigan jazo turlari.

1.2. “ZAMONAVIY PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR” MODULINING O‘QUV-MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy
1.	Zamonaviy ta’limda emotsional intellektning tutgan o‘rni. (Hissiy intellekt va ijodiy yondashuv)	2		2
2.	Maktab ta’limida ijodiylikni oshirishning psixologik o‘ziga xosligi.	2		2
3.	Muloqot psixologiyasi va pedagogik etika	2		2
	Jami	**6**		**6**

1.2. “ZAMONAVIY PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Zamonaviy ta’limda emotsional intellektning tutgan o‘rni (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Hissiy intellekt tushunchalari. Ta’lim oluvchi his-tuyg‘ularini o‘rganish. O‘quvchi va o‘qituvchilarning niyatlarini, motivatsiyasi va istaklarini tushunish qobiliyati. O‘z-o‘zini anglash. O‘z his-tuyg‘ularini va ularning sabablarini aniqlash, tan olish, ularning insonga qanday ta’sir qilishini tushunish qobiliyati. O‘z-o‘zini boshqarish. Tuyg‘ularni boshqarish. Impulslarni boshqarish. O‘zgarishlarga moslashish va stressga chidamli bo‘lish qobiliyati. Ijtimoiy ong. Boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini, ularning ehtiyojlari va motivlarini anglash, ishonchli munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati.

Ijtimoiy ko‘nikmalar. Tuyg‘ularni hurmat bilan ifoda etish, muzokaralar olib borish va nizolarni hal qilish, jamoada ishlash, yetakchilik qilish qobiliyati. Emotsional intellektda empatiyaning tutgan roli.

2-mavzu. Maktab ta’limida ijodiylikni oshirishning psixologik o‘ziga xosligi
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Maktab ta’limida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish. Ijodiy qobiliyat tushunchalari. Ijodiy qobiliyat psixologiyasi. Ijodiy yondashuv: nazariya va amaliyot. Samarali ta’lim – ijodiy yondashuv mahsuli.

Shaxsiy rivojlanishdagi ijodkorlik psixologiyasi. O‘quvchilar ijodini rivojlantirish. Ijodkorlik muammolari. O‘quvchilar ijodiy qobiliyatining asoslari. Ijodiy faoliyatning tuzilishi va dinamikasi. Z.Freydning tadqiqotlarida ijodkorlik qobiliyati haqida. Amerikalik tadqiqotchilar A.Xotson va K.R.Xausman ijodkorlik qobiliyatiga munosabatlari. Maktab ta’limida o‘quvchilarni ijodkorligini rivojlantirish mashg‘ulotlar.

3-mavzu. Muloqot psixologiyasi va pedagogik etika
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘qituvchi imidji. O‘quvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqot qilish usullari. O‘qituvchining muloqot madaniyati va pedogogik kompetensiyasi. Dars jarayonida samarali muloqot usullarini qo‘llashning ahamiyati va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sir etish yo‘llari. O‘qituvchining tinglash ko‘nikmasi, tushuntirish mahorati, emotsional qo‘llab-quvvatlash, fikrlar va ehtiyojlarga hurmat bilan yondashuv usullari. Muloqot jarayonida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolar – o‘quvchilarning muloqotga qo‘shilishdan bosh tortishi, ota-onalarning ta’lim jarayoniga qiziqishsizligi.

Pedagogik etika – pedagogik mahoratning muhim qismi. O‘qituvchi-rahbar, xodim-xodim, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati.

1.3. “TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Darslarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish usullari
(2 soat ma’ruza mashg‘uloti)

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan usullar va texnologiyalar.

Darslardagi turli mavzularga mos tarbiyaviy metodlarni qo‘llashda kreativ yondoshuvlar. O‘quvchilarda sog‘lom turmushni shakllantirish.

2-mavzu. O‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirishning pedagogik asoslari
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilarni ma’naviy va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish, jamoaviy munosabatlarni shakllantirish. O‘quvchilardagi o‘z qarashlarini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari.

1.4. “INKLYUZIV TA’LIM MASALALARI” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy
1.	Barcha uchun birdek ta’lim imkoniyatlarini yaratish mexanizmi	2	2	
2.	Inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatga erishishning yangicha pedagogik yondashuvlari	2		2
	Jami	**4**	**2**	**2**

1.4. “INKLYUZIV TA’LIM MASALALARI” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Barcha uchun birdek ta’lim imkoniyatlarini yaratish mexanizmi (2 soat ma’ruza mashg‘uloti)

Inklyuziv - hamkorlikdagi ta’lim tizimi. Butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida tan olinganligi.

Inklyuziv ta’limning maqsadi. O‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash; ta’lim muassasasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish; ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish; ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish; jamiyatda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish.

2-mavzu. Inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatga erishishning yangicha pedagogik yondashuvlari (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslari. Ta’limda tenglikni ta’minlash uchun zarur pedagogik xizmatlarni tashkil etishi, hamda nogiron bolalarga inklyuziv sharoitlar yaratishda pedagogik mas’uliyatni amalga oshirish mexanizmi.

Inklyuziv ta’limning psixologiyasi: ehtiyojlari va imkoniyatlari. O‘quvchilarning psixologiyasiga asoslanib, inklyuziv ta’limdagi ehtiyojlar va ularga qo‘yiladigan talablar.

Inklyuziv sinflarda ishlashda yangicha pedagogik qarashlar; dars davomida barcha o‘quvchilarning ishiga ijobiy hissiy kayfiyatni yaratish; o‘quvchilarni

vazifalarni bajarishning turli usullarini tanlash va mustaqil va guruhda ishlashga undash imkoniyatlarini kengaytirish.

II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

2.1. “KASBIY RIVOJLANISH VA O‘ZARO HAMKORLIK” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy
1.	Kasbiy faoliyatni rivojlantirishda individual va hamkorlik faoliyatini tashkil etish metodikasi	2	2	
2.	O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash - kasbiy rivojlanish asosi	2		2
	Jami	**4**	**2**	**2**

2.1. “KASBIY RIVOJLANISH VA O‘ZARO HAMKORLIK” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Kasbiy faoliyatni rivojlantirishda individual va hamkorlik faoliyatini tashkil etish metodikasi
(2 soat ma’ruza mashg‘uloti)

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda ta’lim resurslari va yo‘llanmalar berish, online dars berish usullari va raqamli platformalar bilan tanishtirish. Kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilar hamkorligi. KRK va KRS tadbirlarida o‘zaro tajriba almashish. O‘qituvchilarning maktabda jamoada ishlash, hamkasblar va o‘quvchilar ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

2-mavzu. O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash - kasbiy rivojlanish asosi
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘zini-o‘zi baholash faoliyati. O‘z faoliyatini baholash turlari va vositalari. O‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning samarali usul va vositalari. O‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish.

2.2. “ZAMONAVIY TA’LIM PARADIGMALARI” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy
1.	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim	2	2	
2.	Loyihaga asoslangan ta’lim	2		2
	Jami	**4**	**2**	**2**

2.2. “ZAMONAVIY TA’LIM PARADIGMALARI” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (2 soat ma’ruza mashg‘uloti)

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va texnologiyalari. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim modeli. O‘quvchi shaxsini rivojlantirish omillari- jismoniy, harakat, sezish, anglash, til va ijtimoiy-hissiy. O‘quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadlariga erishishning samarali yo‘llari. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. Bola imkoniyatlariga asoslanib o‘qitish.

2-mavzu. Loyihaga asoslangan ta’lim (2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. O‘quvchilarning amaliy tajribalarini va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar. Loyihaning tanlanishi, tadqiqot va tahlil, loyihani rejalashtirish, natijalarni taqdim etish.

Tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usul va vositalardan foydalanishning samarali yo‘llari.

2.3. “O‘QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy
1.	Darsning tarkibiy qismlari va uni taqdim etish metodikasi	2		2
2.	O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi	2	2	
3.	Formativ va summativ baholash tizimi va mohiyati, baholash mezonlari	2		2
4.	Dars kuzatish va tahlil qilish.	2		2
	Jami	**8**		**8**

2.3. “O‘QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Darsning tarkibiy qismlari va uni taqdim etish metodikasi (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Dars maktabda o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli. Dars (o‘quv mashg‘uloti)ning tarkibiy qismlari. Dars strukturasi. Dars turlari. Zamonaviy dars tavsifi. Dars (o‘quv mashg‘uloti)ning tarkibiy qismlari. "SMART" vositasida dars maqsad va vazifalarini belgilash, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqishning samarali yo‘llari va vositalari.

2-mavzu. O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi (2 soat ma’ruza mashg‘uloti)

O‘quvchilar bilimini baholashning amaldagi tizimi. Mezon asosida baholash asoslari. O‘quv faoliyatini baholash shakllari va vositalari. Alternativ baholash. Mezon asosida baholash asoslari. Baholash topshiriqlariga qo‘yilgan SMART talablari.

3-mavzu. Formativ va summativ baholash tizimi va mohiyati, baholash mezonlari (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Summativ va formativ baholash usullari. Refleksiya. Baholash tizimlari. O‘quvchilarni baholashning samarali va adolatli usullari hamda vositalaridan foydalanish. Turli baholash usullarini ishlab chiqish va tahlil qilish.

4-mavzu. Dars kuzatish va tahlil qilish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Dars tahlili turlari va talablari. Darslarni kuzatish, tahlil turini tanlash va maqsadlarni belgilash. Dars bo‘yicha xulosalarni qayd etish va taqdim etish. Darsni tahlil qilishning turli shakl va vositalaridan samarali foydalanish.

Dars tahlil qilish madaniyati “Fidbek” insturumentidan foydalanish. Fidbekning pedagog taraqqiyotiga ta’siri. Fidbek-qayta bog‘lanish qoidalari, usullari (gamburger, oltita shlyapa, debrifing, qiyofalar va kubikchalar usuli), darsni tahlil qilish maqsadiga ko‘ra jadval shakllari bilan tanishtirish.

2.4. “TA’LIM SIFATINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy
1.	Xalqaro dasturlar (PISA, TIMSS va PIRLS) talablari asosida ta’lim samaradorligini oshirish.	2	2	
2.	PISA, PIRLS va TIMSS tadqiqotlarida o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar.	2		2
	Jami	**4**	**2**	**2**

2.4. “TA’LIM SIFATINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Xalqaro dasturlar (PISA, TIMSS va PIRLS) talablari asosida ta’lim samaradorligini oshirish (2 soat ma’ruza mashg‘ulot)

Xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS va TIMSS tadqiqoti natijalari asosida ta’lim sifatini oshirish yo‘lida amalga oshiriladigan yangi yondashuv va strategiyalar. Xalqaro baholash dasturlarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishning ahamiyati. Xalqaro tadqiqotlar reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlarning ilg‘or tajribalari.

2-mavzu. PISA, PIRLS va TIMSS tadqiqotlarida o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Xalqaro tadqiqotlarida o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni baholash yo‘nalishiga oid asosiy tushunchalar, topshiriqlar, ularning tasnifi va kreativ fikrlashni baholash bo‘yicha nazariy ma’lumotlar, uni baholashga e’tibor qaratilgan muhim jihatlar, topshiriq namunalari va baholash yondashuvlari.

2.5. “TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy
1.	Ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish asoslari	2	2	
2.	Ta’limda pedagogik dasturiy vositalar va immersiv texnologiyalar	2		2
3.	Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari	2		2
	Jami	**6**	**2**	**4**

2.5. “TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish asoslari (2 soat ma’ruza mashg‘uloti)

Raqamli ta’lim tushunchasi. Ta’limni raqamlashtirishning maqsad va vazifalari. Raqamli ta’limning asosiy vositalari. Ilg‘or xorijiy tajribalar. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va ularning turlari. Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari.

2-mavzu. Ta’limda pedagogik dasturiy vositalar va immersiv texnologiyalar (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan (LearningApps, Wordwall, Kahoot!, Nearpod, Ispring Suite, Canva, Padlet, FigJam, Socrative, Quizlet... platformalari) dars jarayonida samarali foydalanish. Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar (PhET Interfaol simulyatsiyalari, The Physics Aviary, Physics: Interactive Physics Simulations, Khan academy, ChemCollective, Vascak, GeoGebra, Microsoft Math Solver ... platformalari) va ularning imkoniyatlari

3-mavzu. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari (ChatGPT (Open AI), Copilot (Microsoft), Gemini (Google), Classpoint AI, Slidesgo, Magic School, Magickpen, Krea AI ...) va ularning o‘rni

III. FANNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

3.1. “MILLIY O‘QUV DASTURI VA AMALDAGI DARSLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI ASOSIDA DARS JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami soat	Ma’ ruza	Amaliy mashg`ulot
1.	Ona tili va adabiyot fanidan Milliy o‘quv dastur, DTS tahlili	2	2	
2.	Ona tili va adabiyot darsliklari hamda ularni amaliyotga samarali tatbiq etish	2		2
3.	Ta’lim jarayoniga differensial yondashuv	2		2
	Jami	6	2	4

3.1. “MILLIY O‘QUV DASTURI VA AMALDAGI DARSLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI ASOSIDA DARS JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. **Ona tili va adabiyot fanidan Milliy o‘quv dastur, DTS tahlili (2 soat nazariy mashg‘ulot)**

Milliy o‘quv dasturi: umumiy o‘rta ta’limning, malaka talablari, umumta'lim fanlarining konsepsiyalari, umumiy o‘rta ta’limning, o‘quv rejasi, umumta’lim fanlarining, o‘quv dasturlari, Umumta’lim fanlarini, o‘qitish metodologiyasi, Baholash (savodxonlik, kompetentsiyalar va shaxsiy sifatlarni baholash tizimi). Milliy o‘quv dasturining mazmuni va tamoyillarini chuqur tushunish, zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi darslar tashkil etish.

2-mavzu. **Ona tili va adabiyot darsliklari hamda ularni amaliyotga samarali tatbiq etish (2 soat amaliy mashg‘ulot)**

Ona tili va adabiyot fanidan yangi nashr etilgan darsliklar tahlili, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish yo‘llari. Bugungi darsliklardagi integratsion yondashuv, o‘quvchi hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilganligi. Darsliklarda berilgan loyiha ishlarini tashkil etish.

3-mavzu. Ta’lim jarayoniga differensial yondashuv
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘qitishda differensiatsiya – maktab, sinf, guruhlar kontingentining xususiyatlarini hisobga olgan holda turli ta’lim sharoitlarini yaratish; gomogen guruhlarda ta’lim berishni ta’minlovchi metodik, psixologopedagogik, tashkiliy tadbirlar majmuasini yaratish. Ta’limni differensiasiyalash tamoyili – pedagogik jarayonni tabaqalashtirish holati ekanligi. Individual ta’lim differensiatsiya (tabaqalashtirish) ning asosiy turlaridan biri. Differensial yondashuvni amalga oshirish bir tipdagi gomogen o‘quvchilar guruhlarini shakllantirish.

3.2. “XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (7 E modeli)” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami soat	Ma’ ruza	Amaliy mashg`ulot
1.	Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish	**2**	**2**	
2.	Ona tili va adabiyot darslarida “Moddiy-Rasmli-Timsolli” yondashuv orqali hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish	2		**2**
3.	O‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy o‘quv jarayonini tashkil etish yo‘llari (7E modeli)	2		2
4.	5Pga asoslangan ta’lim yondashuvi asosida ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish. Muammoga asoslangan ta’limni tashkil etish	2		2
5.	Tadqiqotchilikka va loyihaga asoslangan ta’limni tashkil etish	2		2
6.	Jarayonga va natijaga asoslangan ta’limni tashkil etish	2		2
7.	Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash usullari (modifikatsiya va akkomodatsiya)	2		2
	Jami	**14**	**2**	**12**

3.2. “XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. **Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish (2 soat ma’ruza, 2 soat amaliy mashg‘ulot)**

Funksional savodxonlik insonning butun hayoti davomida shakllanishi, inson faoliyatining barcha sohalarida yangi bilimlar, tushunchalar, qoidalar va me’yorlarni o‘zlashtirish zarurligi, doimiy o‘zgarishlarning ro‘y berishi. Ona tili va adabiyot darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishish va unga imkon qadar tezroq moslashish hamda ushbu sharoitda ishlash qobiliyatini oshirish, o‘qish, tushunish, oddiy, qisqa matnlarni tuzish va oddiy arifmetik amallarni bajarish qobiliyati, ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning normal ishlashini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

2-mavzu. Ona tili va adabiyot darslarida “Moddiy-Rasmli-Timsolli” yondashuv orqali hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Ona tili va adabiyot darslarida “Moddiy-Rasmli-Timsolli” yondashuv asosida o‘quvchilarning tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Voqea-hodisalarni ramziy timsollar asosida idrok etish, tahlil qila olish. Ona tili va adabiyot darslarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda ko‘rgazmali o‘quv qurollari va “Moddiy-Rasmli-Timsolli” yondashuvining o‘rni va ahamiyati. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning ta’limdagi faoliyatini faollashtirish, o‘zlashtirish jarayonini yanada jonli va interaktiv qilishda muhim vosita sifatida. “Moddiy-Rasmli-Timsolli” yondashuvining asosiy mohiyati o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni ko‘rgazmali vositalar, rasm, diagrammalar, timsollar va boshqa tasviriy materiallar orqali taqdim etish.

3-mavzu. O‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy o‘quv jarayonini tashkil etish yo‘llari. 7E modeli (2 soat amaliy mashg‘ulot)

7E modeli: *aniqlang, jalb qiling, o‘rganing, tushuntiring, ishlab chiqing, baholang va kengaytiring.* 7E modelida o‘qituvchi o‘quvchilar tomonidan bilimlarni qurish jarayonini osonlashtirish uchun o‘qitish strategiyasini moslashtirish, o‘zgartirish, qayta qurish va qayta rejalashtiruvchi fasilitator. O‘quvchilar esa savollar berish, o‘z fikr va qarashlarini yetkazish orqali o‘rganish jarayonida faol ishtirokchi. Darslarni 7E modeliga asoslangan ko‘rsatmalardan foydalanish o‘quvchilarga tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, o‘quvchilarning yutuqlarini oshiradi, olingan bilimlarni eslab qolishga yordam beradi, ilm-fan jarayoni ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, analitik fikrlash qobiliyatlari va fanni o‘rganishga munosabat yaxshilanadi.

4-mavzu. 5Pga asoslangan ta’lim yondashuvi asosida ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish. Muammoga asoslangan ta’limni tashkil etish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

5Pga asoslangan ta’lim yondashuvi: shaxs, muammo, loyiha, jarayon, natijaga yo‘naltirilgan ta’lim.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish, o‘quvchilarning o‘z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratish, unda asosiy talab o‘quvchining hayotiy tajribasi, avval o‘zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berish. O‘quvchi nafaqat bilim va tajriba orttirishi, balki “shaxs” bo‘lishni ham o‘rganishi kerak.

Muammoli ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, muammoli vaziyatni yaratish va muammoni yechishda qo‘llaniladigan usullar: Muammoli ta’limning asosiy g‘oyasi bilimlarni o‘quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo‘yicha o‘quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat ekanligi. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish. Muammoning qo‘yilishi. Muammoning yechimini topish.

5-mavzu. Loyihaga asoslangan ta’limni tashkil etish
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

“Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi”ning mazmuni, mohiyati. O‘quv loyihalari turlari. Loyiha bosqichlari. Muammolarni aniqlash va loyiha tavsifini yozish tartibi. Ta’lim jarayonida loyihaviy ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanish yo‘llari. O‘quvchilarning ilmiy-metodik va badiiy adabiyotlar bilan ishlash, loyiha mavzusini tanlash, rejasini tuzish, materiallar yig‘ish, hamkorlikda ishlash va taqdimot qilish malakalarini rivojlantirishda loyihaviy ta’lim texnologiyasining o‘rni. O‘quvchilar hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirilishida, bilimlarini mustaqil o‘zlashtirishlari va amaliy tatbiq eta olishlarida, tanqidiy, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

6-mavzu. Jarayonga va natijaga asoslangan ta’limni tashkil etish
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Jarayonga asoslangan ta’lim (Process-based education) – ta’limning metodologik yondashuvi. Ta’lim jarayoni va uning rivojlanishi, o‘qish, o‘rganish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi. Jarayonga asoslangan ta’limda o‘quvchilarni faqat ma’lumotlar bilan ta’minlash emas, balki ta’lim jarayonida ishtirok etish, muammolarni hal qilish va o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Natijaga asoslangan ta’lim (Outcome-based education, OBE) – ta’limning samaradorligini o‘lchash va yaxshilashga yo‘naltirilgan yondashuv. Ta’lim jarayonining asosiy maqsadi o‘quvchilarga aniq natijalar (ma’lum ko‘nikmalar, bilimlar, qobiliyatlar)ni ta’minlashga qaratilganligi. Natijaga asoslangan ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilardir: ta’lim natijalari aniqligi, fokus natijalar, o‘qitish va baholashning o‘zaro bog‘liqligi, o‘quvchi markazlashgan yondashuv.

7-mavzu. Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash usullari. Modifikatsiya va akkomodatsiya (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda “Skaffold” usuli (moslashtirilgan yondashuv) va qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarga o‘zlarining proksimal (yaqin) rivojlanish zonasidagi ma’lumotlarni qabul qilishga, keyin esa yangi ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga imkon berish.

Akkomodatsiya (topshiriq yoki baholash uchun qo‘shimcha vaqtga ruxsat berish, mashq paytidagi tanaffuslar, assistiv texnologiyalardan foydalanish, tarjima qilingan materiallar, topshiriqlarni qismlarga bo‘lish, so‘zlar lug‘ati, grafik organayzerlar, ko‘rgazmali vositalar, tarqatma materiallar).

Modifikatsiya (topshiriq yoki baholash mazmunini o‘zgartirish, kamroq savollar berish, moslashtirilgan baholash mezonidan foydalanish, muqobil topshiriqlar berish).

3.3. “O‘QUVCHILARNING MATN BILAN ISHLASH VA YOZMA ISH (ESSE, INSHO, TOPSHIRIQLI DIKTANT)LARNI YOZISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami soat	Ma’ ruza	Amaliy mashg`ulot
1.	Ilmiy va badiiy matn bilan ishlash jarayonida ilmiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	4		4
2.	Ona tili darslarida mumtoz matnlar bilan ishlash metodikasi	2		2
3.	Katta va kichik hajmli matnlar bilan ishlash usullari	4		4
4.	Fikrni yozma bayon qilish orqali savodxonlikka erishish. Esse yozish texnikasi va baholash	4	2	2
5.	O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda inshoning ahamiyati	2		2
	Jami	**16**	**2**	**14**

3.3. “O‘QUVCHILARNING MATN BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARI VA YOZMA SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Matn bilan ishlash jarayonida ilmiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish (4 soat amaliy mashg‘ulot)

Ilmiylikka asoslangan matnlarni o‘qib tushunish, ilmiy dalillarni aniqlash, bir xil shakldagi ma’lumotni boshqa shakldagi ma’lumotga aylantirish, xulosalar chiqarish va matn asosida tegishli g‘oyalarni ilgari surish. Ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda: o‘quvchilarni fan yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy adabiyot, darsliklarni mustaqil o‘rganishlariga erishish, turli axborot manbalaridan zarurlarini ajratib olish ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy ma’lumotlarda berilgan turli atama, hodisa va tushunchalarni qanday ma’no anglatishi haqida ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lishi, hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish va ilmiy farazlarni taklif etish, ma’lum ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni boshqa ko‘rinishda ifodalay olish, bu orqali ma’lumotlar tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish, ilmiy dalil va nazariyalarga asoslangan mulohazalar orqali fikr yuritish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni ilmiy ko‘rinishda tushunarli tarzda bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Badiiy asar bilan tanishtirish, badiiy matnni tushunish (sujet va strukturani tahlil qilish), badiiy matnni talqin qilish (adabiy vositalar va uslublardan foydalanishni tahlil qilish), badiiy matn bilan ishlash.

2-mavzu. Ona tili darslarida mumtoz matnlar bilan ishlash metodikasi (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Ona tili darslarida mumtoz matnlar bilan ishlash orqali o‘quvchilarning adabiy va tilshunoslik ko‘nikmalarini rivojlantirish. Mumtoz adabiyot, badiiy qadriyatlar, til tarixi xususiyatlari ona tili darslarida ma’naviy vosita. Mumtoz matnlar bilan ishlashning bir nechta samarali usullari: tahlil qilish va tushunish, tarixiy va madaniy kontekstni tushunish, turli janr va mumtoz adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, xulosa chiqarish, dialog va munozara, savol-javob, dramatizatsiya, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, matnni tanqidiy tahlil qilish.

3-mavzu. Katta va kichik hajmli matnlar bilan ishlash metodikasi (4 soat amaliy mashg‘ulot)

Matn tiplari. Matn hajm va mazmun belgisiga ko‘ra ikki turi: hajmiga ko‘ra matn tiplari; ifoda mazmuniga ko‘ra matn tiplari. Matnni hajm belgisiga ko‘ra ikki turi: minimal matn va maksimal matn. Katta hajmli matnlar bilan ishlash texnologiyasi: “Bumerang”.

Matn bilan ishlashning 3 bosqichi: O‘qishdan oldin matn bilan ishlash. O‘qish jarayonida matn bilan ishlash. O‘qishdan keyin matn bilan ishlash.

I-bosqich. O‘qishdan oldin matn bilan ishlash. Maqsad - o‘qishni bashorat qilish. Vazifalar: dars maqsadlarini to‘g‘ri belgilash; o‘quvchilarning tarbiyaviy, emotsional, motivatsion, psixologik tayyorligi; semantik, tematik, hissiy yo‘nalishini aniqlash; bolalarning o‘qish tajribasiga asoslanish; asar nomi, kalit so‘zlar, matndagi qahramonlarni ajratib ko‘rsatish.

II-bosqich. O‘qish jarayonida matn bilan ishlash. Maqsad - matnni mundarijasi darajasida tushunish. Vazifalar: 1. Bosqich matnni dastlabki o‘qishdan boshlanadi. 2. Matnni qayta o‘qishga alohida ahamiyat qaratiladi. 3.

Umumiy mazmun bo‘yicha suhbat, o‘qilganlarni umumlashtirish, matnga umumlashtiruvchi savollar berish. 4. Ifodali o‘qish.

III bosqich. O‘qishdan keyin matn bilan ishlash. Maqsad - matnni mazmuni darajasida tushunishga erishishdir. Vazifalar: yozuvchi, shoir bilan tanishish; darslik materiallari, qo‘shimcha manbalar bilan ishlash; sarlavha, illyustratsiyalar bilan ishlash; o‘quvchilarning o‘qish faoliyatining istalgan sohasiga asoslangan ijodiy topshiriqlar.

4-mavzu. Fikrni yozma bayon qilish orqali savodxonlikka erishish. Esse yozish texnikasi va baholash (2 soat nazariy, 2 soat amaliy mashg‘ulot)

Esse yozish qoidalari. Esse va inshoning farqli tomonlari. O‘quvchilarda esse yozish ko‘nikmalarini shaklantirish. Essening maqsadi – o‘quvchini faol va tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, o‘z mulohazalarini dalillashga yo‘naltirish, til unsurlaridan o‘rinli foydalanish orqali fikrni to‘g‘ri yetkazib berish ko‘nikmalarini shakllantirish. Esse yozish o‘quvchilarga o‘z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma’lumotni to‘g‘ri qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o‘z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi.

5-mavzu. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda inshoning ahamiyati (2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilarda inshoni puxta reja bo‘yicha yozish, mantiqan izchil, imloviy, uslubiy va punktuatsion jihatdan to‘g‘ri hamda dalillarga tayangan holda yozishda tahlil qiluvchi va yo‘naltiruvchi usullar. Insho mavzusini shakllantirish, tanlash, tuzish va tezis sifatida shakllantirish, inshoga epigraf tanlash, inshoga material to‘plash ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradigan topshiriqlar.

3.4. “ADABIYOT NAZARIYASIGA OID KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy mashg`ulot
1	Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishning samarali usullari	2		2
2	She’riy vazn va badiiy tasvir vositalari tahlili metodikasi	2		2
	Jami	4		4

3.4. “ADABIYOT NAZARIYASIGA OID KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishning samarali usullari (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Mumtoz matnlar bilan ishlashda lug‘atlarning ahamiyati, g‘azal, qofiya, radif, raviy tushunchalari, ularning turlari. Nazmiy va nasriy mumtoz asarlardagi arabcha, forscha so‘zlarni izohlash va tushunish, g‘azalni tabdil qilishda, mumtoz so‘zlar lug‘atidan foydalanish. Badiiy san’at turlari va g‘azal tabdilida she’riy san’atlarning o‘rni.

Mumtoz matnlarni sharhlab o‘qishning samarali usullari: asar tilidagi hozirgi kitobxonga tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar lug‘atini berish; baytlarning nasriy bayonini berish; g‘azalning umumiy ma’nosi, badiiy xususiyatlari ustida mulohaza yuritish.

2-mavzu. She’riy vazn va badiiy tasvir vositalari tahlili metodikasi (2 soat amaliy mashg‘ulot)

She’riy vaznlarni farqlashda va badiiy tasvir vositalari tahlilida tanib olishlilikka, to‘ldirishlilikka, tuzilishlikka doir topshiriqlar bilan ishlash. Tasviriy vositalar tahlilida “Moddiy-Rasmli-Timsolli” yondashuv.

O‘zbek she’r tizimlari; barmoq, erkin va aruz she’r tizimlari; barmoq she’r tizimi va uning qonuniyatlari, erkin vazn va uning qonuniyatlari: ritm, bo‘g‘in, turoq, bosh turoq, turkum, vazn va uning tiplari (sodda vazn, qo‘shma vazn, erkin vazn)ni o‘qitishning usul va metodlari: izohli, ko‘rgazmali, namoyish, kitob bilan ishlash, reproduktiv, tadqiqot, loyihalar metodi, suhbat metodlari.

3.5. “O'QITUVCHINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH” MODULINING O‘QUV MAVZU REJASI

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Ma’ ruza	Amaliy mashg`ulot
1	O‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishida ommalashtirishning o‘rni	2		2
2	Uslubiy ishlanmalar - ilg‘or tajribalarni ommalshtirish vositasi	2		2
	Jami	4		4

3.5. “O'QITUVCHINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH” MODULINING O‘QUV DASTURI

1-mavzu. O‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishida ommalashtirishning o‘rni

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi hamda faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini takomillashtirish. Ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan, faoliyati davomida zamonaviy metodikalarni qo‘llab kelayotgan o‘qituvchilarni aniqlash va ularning ilg‘or tajribalarini ommalashtirish. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ommalashtirish.uz platformasi tashkil etilishi. Ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirishga yo‘l-yo‘riqlari.

2-mavzu. Uslubiy ishlanmalar - ilg‘or tajribalarni ommalshtirish vositasi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tezis, ilmiy, ilmiy-metodik maqola yozishga qo‘yiladigan talablar. Maqola strukturasi. Kirish, mavzuga doir adabiyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar va xulosa qismlarini shakllantirish. Ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar tahlili. Tezish shakllantirish mashqi. Maqola qoralamasini shakllantirish.

Uslubiy ishlanmalar turlari. Uslubiy qo‘llanma va uning uslubiy ko‘rsatmadan farqli jihatlari. Uslubiy tavsiya, qo‘llanma tayyorlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ommalashtirish uchun tayyorlanadigan uslubiy tavsiya, qo‘llanmaning birlamchi shaklini tayyorlash.

3.5.MODUL. TANLOV FAN

Tanlov fan mavzulari malaka oshirish kursi tinglovchilarining ehtiyojlari asosida berilgan takliflardan tuziladi.

IV. YAKUNIY NAZORAT (6 soat)

(dars loyihasi va mikrodars taqdimoti)

2-3 nafar o‘qituvchi kurs davomida o‘zlashtirgan bilim ba ko‘nikmalari asosida bitta darsning texnologik xaritasi, ishlanmasi, taqdimoti va tarqatma materiallarini birgalikda yaratadi va har biri darsning muayyan bosqichini jonli namoyish qilib beradi.

Bunda o‘qituvchilarning asosan pedagogik mahorati baholanadi va bu baho (ballar) ularning attestatsiyadan o‘tish jarayonida pedagogik mahorati ko‘rstkichi sifatida qayd qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Huquqiy-me’yoriy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni, - T.: 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni, - T.: 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son Farmoni, - T.: 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 son Farmoni, - T.: 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori, - T.: 2024.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar // Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020-yil 29-dekabr).

Maxsus adabiyotlar

1. Djaylavov A. Ta’lim sohasida interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish texnologiyalari (malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun uslubiy qo‘llanma). - A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2016.

2.Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - T.: “Nihol” nashriyoti, 2013.

3. Paxrutdinov Sh. Global axborot jamiyati va mediata’lim. –T.: 2015.

4. Rustamova N. Mediata’lim va mediamadaniyat: nazariya va amaliyot. – T.: “Muharrir”, 2015.

5. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T.: “Akademiya”, 2007.

6. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2005 y.

IV. Fanga oid adabiyotlar

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – T.: “G‘ofur G‘ulom”, 2018.

3. To‘xliyev B . Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

4. Husanboyeva Q., Niyozova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Birinchi kitob. – T.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.

5. Mavlonova K., Hakimova N.S., Siddiqov M.R., Qo‘ldosheva S.H. Ona tili. 5-sinf. – T: “Novda Edutaiment”, 2024.

6. Yo‘ldoshev Q.B., Qambarova S.I., To‘xliyeva D.B., Yusufjonova N.N. Adabiyot. 5-sinf. 1-qism. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024.

7. Azimova I., Mavlonova K., Qur’onov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili. 6-sinf. – Toshkent, 2022.

8. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. 6-sinf. – Toshkent, 2022.

9. Mavlonova K.M., Azimova I., Qur’onov S. Ona tili. 7-sinf. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

10. Mirzayeva Z.I., Djalilov K.Q. Adabiyot. 7-sinf. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

11. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. 8-sinf. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2019.

12. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R.. Adabiyot. 8-sinf. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2019.

13. Maxmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Ona tili. 9-sinf. - Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2019.

14. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshev J. Adabiyot. 9-sinf. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMU, 2019.

15. Mengliyev B., Abdurahim Sh., Mavlonova K.. Ona tili. 10-sinf. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

16. Mirzayeva Z.I., Jalilov K.Q. Adabiyot. 10-sinf. 1-qism. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2024.

17. Maxmudov N.M., Odilov Y.R., Ziyodullayeva G.Sh. Ona tili. 11-sinf. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, 2018.

18. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K.. Adabiyot. 11-sinf. 1-, 2-qism. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

19. Пинская М. “Компетенции 4К: формирование и оценка на уроке”. – Москва, 2019.

20. Иващенко Т.А., Михаилова А.М. Решение проектных задач [Электронный ресурс] Опубликовано 14.08.2019.

21. Ismailov A. va boshq. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash.-Toshkent: Sharq, 2019.

Elektron ta’lim resurslari

22. https://onlinedu.uz/
23. https://avloniy.uz/uz
24. https://ru.wikipedia.org
25. https://www.oecd.org/
26. http://www.gov.uz
27. https://www.uzedu.uz/
28. https://www.bimm.uz/ru
29. http://ziyonet.uz/ru
30. http://sammoi.uz/uz